



**FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



*2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 38,3 mingtani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 32,1 mingta.

Shuningdek, ushbu davrga 64,0 mingta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1- noyabr holatiga)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

2024- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonava tashkilotlar soni 5,4 mingtani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Yozyovon tumani (82 taga) va Rishton tumanida (28 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 39 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 38,3 mingtani tashkil etdi, ulardan 32,3 mingtasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 34,2 foiz, sanoat – 17,4 foiz, qurilish – 6,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,6 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Farg'ona shahrida – 16,8 foiz, Qo'qon shahrida – 10,0 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,6 foiz, Oltiariq tumanida – 5,8 foiz va Uchko'prik tumanida – 4,9 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.


2024- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 334 ta bo'lib, shundan:

- mikrofimlar va kichik korxonalar 5 309 ta;
- yirik korxonalar 25 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 32,3 mingtani tashkil etdi, ulardan 32,1 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,6 foiz, sanoat – 20,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 4,3 foiz, qurilish – 7,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 4,4 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,4 foiz, boshqa turlari – 10,9 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 121 tadan 158 taga (o'sish 37 taga) ko'paydi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (16,6 foiz), Qo'qon shahrida (10,2 foiz), Marg'ilon shahrida (7,9 foiz), Oltiariq tumanida (6,1 foiz) va Uchko'priq tumanida (5,0 foiz) faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2024- yil 1- noyabr holatiga)


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko‘p qismi So‘x (8,5 foiz), Farg‘ona (7,7 foiz) va Yozyovon (7,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

1 363



64

Baliq ovlash va akvakultura

O‘rmonchilik va yog‘och tayorlash

10




(2024- yil 1- noyabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 17,4 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,8 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash va 0,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



6 331

Ishlab chiqarish
sanoati



173

tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



63

Suv bilan ta'minlash kanalizat-
siya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish



115

Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



(2024- yil 1- noyabr holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 48,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 31,4 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 19,7 foiz ulushni tashkil etdi;

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 13 077 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 57,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 31,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,4 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	1751
Qo'qon shahar	1443
Marg'ilon shahar	1091
Uchko'prik tumani	696
Oltiariq tumani	690
Farg'ona tumani	633
Toshloq tumani	620
Dang'ara tumani	606
Buvayda tumani	600
Quvasoy shahar	588
Quva tumani	577
O'zbekiston tumani	574
Yozyovon tumani	518
Qo'shtepa tumani	514
Rishton tumani	499
So'x tumani	457
Beshariq tumani	449
Bag'dod tumani	432
Furqat tumani	385

Yillar kesimida soni (birlikda)



7 544

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

4 349

1 230

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga 2 145 taga yetib, ularning 2 139 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,1 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	528
Qo'qon shahar	173
Rishton tumani	148
Oltiariq tumani	147
Marg'ilon shahar	117
Bag'dod tumani	108
Farg'ona tumani	105
Quva tumani	98
O'zbekiston tumani	96
Quvasoy shahar	91
Dang'ara tumani	81
Qo'shtepa tumani	78
Toshloq tumani	70
Uchko'prik tumani	66
Furqat tumani	58
Buvayda tumani	55
Beshariq tumani	50
Yozyovon tumani	44
So'x tumani	32

Yillar kesimida soni (birlikda)



2014 Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha xizmatlar

131

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	208
Qo'qon shahar	58
Marg'ilon shahar	52
Oltiariq tumani	39
Rishton tumani	36
Quva tumani	33
Buvayda tumani	33
Qo'shtepa tumani	25
Toshloq tumani	25
Bag'dod tumani	17
Uchko'prik tumani	13
O'zbekiston tumani	12
Farg'ona tumani	11
Quvasoy shahar	11
Dang'ara tumani	10
Beshariq tumani	10
So'x tumani	8
Furqat tumani	7
Yozyovon tumani	5

2024-yil 1-noyabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 72,6 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 23,7 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,7 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	199	246	Aloqa 
	Noshirlik faoliyati	83	62	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
	Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	17	6	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 105 ta yoki 86,4 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 92,1 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;



yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,7 foizini tashkil etdi.;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	286
Qo'qon shahar	147
Marg'ilon shahar	79
Farg'ona tumani	77
Buvayda tumani	64
Beshariq tumani	63
Oltiariq tumani	62
Quva tumani	57
Uchko'prik tumani	57
O'zbekiston tumani	56
Toshloq tumani	54
Qo'shtepa tumani	50
Rishton tumani	43
Dang'ara tumani	41
Bag'dod tumani	37
Furqat tumani	34
So'x tumani	29
Yozyovon tumani	27
Quvasoy shahar	16

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)


Oltiariq tumani	354
Farg'ona shahar	250
Qo'qon shahar	154
Marg'ilon shahar	80
Toshloq tumani	67
Farg'ona tumani	55
Quvasoy shahar	55
O'zbekiston tumani	51
Quva tumani	49
Uchko'prik tumani	48
Beshariq tumani	44
Dang'ara tumani	42
Qo'shtepa tumani	36
Rishton tumani	30
Buvayda tumani	29
Bag'dod tumani	24
Furqat tumani	24
So'x tumani	24
Yozyovon tumani	23

2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 73,5 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 24,9 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,5 foizni;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)

21 523

mas’uliyati cheklangan
jamiyat

66,6

5 957

xususiy korxonalar

18,4

4 503

oilaviy korxonalar

14,0

43

aksiyadorlik jamiyati

0,1

291


boshqalar

0,9

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	729
Qo'qon shahar	411
Marg'ilon shahar	304
Yozyovon tumani	287
Qo'shtepa tumani	235
Oltiariq tumani	215
Quva tumani	215
Buvayda tumani	200
Quvasoy shahar	197
Uchko'prik tumani	195


Beshariq tumani	186
Toshloq tumani	185
O'zbekiston tumani	159
Farg'ona tumani	148
Rishton tumani	142
Dang'ara tumani	139
Furqat tumani	116
Bag'dod tumani	114
So'x tumani	74

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)


Amaldagi 32,3 mingta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024- yil 1- noyabr holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 21,5 mingtani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni, savdo – 41,3 foiz, sanoat – 18,5 foiz, qurilish – 9,3 foiz, tashish va saqlashda – 5,9 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	3 901
Qo'qon shahar	2 797
Marg'ilon shahar	1 900
Uchko'prik tumani	1 113
Oltiariq tumani	1 111
Toshloq tumani	1 032
Dang'ara tumani	1 004
O'zbekiston tumani	953
Qo'shtepa tumani	935
Quva tumani	896


Yozyovon tumani	873
Farg'ona tumani	845
Quvasoy shahar	838
Buvayda tumani	787
Beshariq tumani	624
Bag'dod tumani	523
Rishton tumani	496
Furqat tumani	479
So'x tumani	416

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- noyabr holatiga)


2024- yil 1- noyabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Farg'ona shahrida – 990 ta, Farg'ona tumanida – 420 ta va Bag'dod tumanida – 403 ta.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 2 576 ta, sanoat – 1 100 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 553 ta va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 295 ta.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	990
Farg'ona tumani	420
Bag'dod tumani	403
So'x tumani	400
Marg'ilon shahar	392
Oltiariq tumani	375
Buvayda tumani	357
Quva tumani	345
Rishton tumani	339
Uchko'prik tumani	300


Qo'qon shahar	234
Beshariq tumani	232
Toshloq tumani	222
O'zbekiston tumani	178
Quvasoy shahar	175
Dang'ara tumani	156
Yozyovon tumani	151
Qo'shtepa tumani	144
Furqat tumani	144

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	87
Oltiariq tumani	60
Bag'dod tumani	56
O'zbekiston tumani	54
So'x tumani	43
Farg'ona shahar	43
Farg'ona tumani	40
Quvasoy shahar	40
Marg'ilon shahar	39
Furqat tumani	32


Qo'qon shahar	28
Quva tumani	26
Toshloq tumani	26
Uchko'prik tumani	23
Qo'shtepa tumani	20
Beshariq tumani	20
Dang'ara tumani	20
Buvayda tumani	9
Yozyovon tumani	7

(2024- yil 1- noyabr holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 4,5 mingtani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,1 foiz, sanoat – 33,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 15,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,5 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Rishton tumanida – 11,4 foiz, Farg'ona shahrida – 9,9 foiz va Oltiariq tumanida – 9,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	513
Farg'ona shahar	444
Oltiariq tumani	423
O'zbekiston tumani	280
Dang'ara tumani	271
Qo'qon shahar	260
Bag'dod tumani	255
Marg'ilon shahar	241
Quvasoy shahar	228
Uchko'prik tumani	214

Farg'ona tumani	204
Furqat tumani	195
Beshariq tumani	193
So'x tumani	159
Toshloq tumani	158
Quva tumani	137
Qo'shtepa tumani	135
Buvayda tumani	133
Yozyovon tumani	60

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)


Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 100,0 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Rishton tumani	9
O'zbekiston tumani	5
Dang'ara tumani	4
Oltiariq tumani	3
Buvayda tumani	2
Farg'ona shahar	2
Qo'shtepa tumani	1
Bag'dod tumani	1
Beshariq tumani	1
Quva tumani	1
Uchko'prik tumani	1
Toshloq tumani	1
Farg'ona tumani	1

Yillar kesimida soni
(birlikda)



(2024- yil 1- noyabr holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Rishton (11,6 foiz), O'zbekiston (10,6 foiz) va Quva (9,1 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	1218
O'zbekiston tumani	1113
Quva tumani	958
Farg'ona tumani	868
Uchko'prik tumani	857
Bag'dod tumani	793
Oltiariq tumani	791
Beshariq tumani	673
Toshloq tumani	551
Quvasoy shahar	548
Dang'ara tumani	438
Qo'shtepa tumani	429
Yozyovon tumani	394
Furqat tumani	386
Buvayda tumani	353
Farg'ona shahar	93
So'x tumani	69

Yillar kesimida soni (birlikda)



10 180

Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish



Baliq ovlash
va akvakultura

343



Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

(2024- yil yanvar-oktabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2024- yil yanvar-oktabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o‘shir sur‘ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 129,8 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg‘ona shahar	37
Qo‘qon shahar	18
Marg‘ilon shahar	11
Quvasoy shahar	10
Uchko‘prik tumani	8
Oltiariq tumani	7
Bag‘dod tumani	5
Farg‘ona tumani	4
Buvayda tumani	3


Beshariq tumani	3
Rishton tumani	3
Toshloq tumani	3
Qo‘sh tepa tumani	2
O‘zbekiston tumani	2
Furgat tumani	2
Yozyovon tumani	2
Quva tumani	1
Dang‘ara tumani	1

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 496 ta korxonalardan 222 tasi qo'shma korxonalar va 275 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	153
Qo'qon shahar	63
Quvasoy shahar	37
Marg'ilon shahar	35
Uchko'priq tumani	33
Beshariq tumani	19
Farg'ona tumani	19
Oltiariq tumani	18
Bag'dod tumani	17
O'zbekiston tumani	16

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Quva tumani	15
Dang'ara tumani	14
Toshloq tumani	13
Rishton tumani	10
Furqat tumani	9
Buvayda tumani	8
Qo'shtepa tumani	6
So'x tumani	6
Yozyovon tumani	6

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 110,4 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 141 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 28,4 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 21,9 foiz), Turkiya (ulushi 12,5 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 5,8 foiz) va Qirg'iziston (ulushi 5,6 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2024- yil 1- noyabr holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Farg'ona shahri 30,8 foiz, Qo'qon shahri – 12,7 foiz, Quvasoy shahri – 7,4 foiz, Marg'ilon shahri – 7,0 foiz va Uchko'prik tumani – 6,6 foiz to'g'ri keladi.

(2024- yil 1- noyabr holatiga)

qo'shma korxonalar


xorijiy korxonalar

64	Farg'ona shahar	89	11	Quva tumani	4
21	Qo'qon shahar	42	9	Dang'ara tumani	5
23	Quvasoy shahar	14	6	Toshloq tumani	7
16	Marg'ilon shahar	19	5	Rishton tumani	5
14	Uchko'prik tumani	19	7	Furqat tumani	2
2	Beshariq tumani	17	6	Buvayda tumani	2
11	Farg'ona tumani	8	2	Qo'shtepa tumani	4
11	Oltiariq tumani	7	-	So'x tumani	6
14	Bag'dod tumani	3	4	Yozyovon tumani	2
9	O'zbekiston tumani	7			

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2024- yil 1- noyabr holatiga)



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- oktabrdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024- yil 1- noyabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.:(73) 241-96-46

PRESS-RELIZ

